

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IX son, September

## IJTIMOIY TADBIRKORLIK VA DAVLAT SOLIQ SIYOSATI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

**Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi  
magistratura bosqichi tinglovchisi*

**Anotatsiya:** *Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va davlatning soliq siyosati bilan o'zaro aloqador jihatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda soliq mexanizmlarining o'rni va ular bilan davlat o'rtasida shakllanayotgan hamkorlik yo'nalishlari ochib beriladi. Shuningdek, maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanilgan holda O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni soliqqa tortish sohasidagi takomillashtirish yo'llari va istiqbollari bayon etiladi. Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy tadbirkorlik va soliq siyosati o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmini yaratishga oid amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy tadbirkorlik, soliq siyosati, davlat qo'llab-quvvatlovi, soliq imtiyozlari, hamkorlik modeli, ijtimoiy innovatsiyalar.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarning tashabbuslari asosida tashkil etilayotgan va jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarga yechim topishga xizmat qiluvchi ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu turdag'i tadbirkorlik nafaqat foyda olishni, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ijtimoiy tenglik vaadolatni ta'minlashni maqsad qilganligi bilan oddiy tijorat faoliyatidan farq qiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari ko'p hollarda zaif qatlamlarga xizmat ko'rsatadi, aholining ijtimoiy muammolarini kamaytiradi, bandlikni oshiradi va mahalliy iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligiga hissa qo'shamdi. Bunday muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi subyektlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va ularni rag'batlantirishda davlatning soliq siyosati muhim o'rinnegallaydi.

Soliq siyosati – bu nafaqat byudjetga tushumlarni ta'minlash vositasi, balki iqtisodiyotni tartibga solish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash mexanizmidir. Shu boisdan, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda uni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq yengilliklari berish, qonuniy maqomini belgilash va davlat bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan dasturlarni yo'lga qo'yish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlik va soliq siyosatining o'zaro integratsiyalashuvi, bu yo'nalishdagi muammo va to'siqlar, shuningdek, davlat–tadbirkorlik hamkorligining istiqbollari chuqr tahlil qilinadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining hozirgi soliq siyosatida ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida mavjud imkoniyatlar va ularni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*IX son, September*

Ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tobora ortib borayotgan ahamiyat kasb etmoqda. U faqat iqtisodiy foyda olishni emas, balki jamiyatdagi muayyan muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat turi sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari, odatda, nogironlar, kam ta'minlangan aholi qatlamlari, yolg'iz keksalar, yetim bolalar, ishsiz yoshlar kabi ehtiyojmand guruhlar bilan ishlaydi va ularning turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiluvchi xizmatlar yoki mahsulotlar ishlab chiqaradi. Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlik davlat tomonidan rag'batlantirilishi zarur bo'lgan faoliyat turidir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator huquqiy va iqtisodiy asoslar yaratilmoqda. Jumladan, Prezidentning farmonlari va hukumat qarorlarida ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy tadbirkorlikning o'rni alohida ta'kidlab o'tilmoqda. Lekin bu sohani yanada kuchaytirish uchun uni soliqqa tortish tizimi bilan uyg'unlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Soliq siyosati davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi eng muhim vositalaridan biridir. Ijtimoiy tadbirkorlikni soliqqa tortishda maxsus yondashuv talab etiladi, chunki bunday subyektlar nafaqat daromad olish, balki ijtimoiy missiyani bajarishga qaratilgan. Shu boisdan, ularni umumiyligi soliq tizimi doirasida baholash samarasiz natijalarni keltirib chiqaradi. Masalan, O'zbekistonning amaldagi soliq qonunchiligidagi "ijtimoiy tadbirkor" tushunchasi aniq belgilab qo'yilmagan. Bu esa soliq organlari tomonidan bunday subyektlarni aniqlash va ularga nisbatan maxsus tartibni qo'llashda muammolar keltirib chiqaradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati uchun alohida huquqiy maqom va soliq yengilliklari joriy etilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada "Community Interest Company (CIC)" deb ataluvchi huquqiy shakl mavjud bo'lib, bunday kompaniyalar davlat tomonidan soliqdan ozod qilinishi yoki yengil tartibda soliqqa tortilishi mumkin. Shuningdek, AQShda notijorat maqomidagi ijtimoiy bizneslar uchun alohida daromad soliqlari bo'yicha imtiyozlar mavjud. Germaniya, Kanada, Fransiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ham davlatning ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati keng ko'lamli soliq preferensiyalari bilan mustahkamlangan.

O'zbekiston sharoitida ham ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yengilliklarini belgilash masalasi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarini foyda solig'idan ma'lum muddatga ozod qilish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etayotgan tadbirkorlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kompensatsiya mexanizmini joriy qilish mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan yuridik shaxslar uchun yillik moliyaviy hisobot taqdim etish tartibini soddalashtirish, soliq auditiga oid yengilliklar yaratish ham dolzarbdir. Yana bir muhim jihat — davlat va ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlik modelini shakllantirishdir. Bunda davlat buyurtmalarini ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari orqali amalga oshirish, ya'ni nogironlar uchun ijtimoiy xizmatlar, ehtiyojmand oilalarga oziq-

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IX son, September

ovqat yetkazish, mahalliy infratuzilmani yaxshilash kabi vazifalarni davlat tomonidan moliyalashtirish orqali tadbirkorlik bilan birgalikda amalga oshirish mumkin. Bu orqali ham davlatning ijtimoiy yuklamasi kamayadi, ham tadbirkorlar barqaror iqtisodiy manbara ega bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. “Ijtimoiy tadbirkorlik” tushunchasini qonuniy jihatdan aniq belgilab qo‘yish va uni soliq kodeksiga kiritish;
2. Ijtimoiy tadbirkorlar uchun alohida soliq yengilliklari, preferensiyalar va grant mexanizmlarini joriy etish;
3. Soliq organlari xodimlarini ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini tushunishga doir o‘quv-treninglar orqali tayyorlash;
4. Davlat ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishda ijtimoiy tadbirkorlarni asosiy ijrochilardan biri sifatida jalb etish;
5. Xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlar bilan hamkorlikda ijtimoiy tadbirkorlikka soliq rag‘batlarini yo‘naltirish.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlik va davlat soliq siyosati o‘rtasidagi hamkorlik ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omilga aylanmoqda. Buning uchun esa soliq siyosatini ijtimoiy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi tarzda isloh qilish va ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy maqomini mustahkamlash zarur. Bu esa o‘z navbatida, davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi hamda barqaror taraqqiyotga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Солик кодекси. – Т.: Adolat, 2024.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Конуни. – Т., 2023.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 30 декабрдаги ПФ–269-сон Фармони “Камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш стратегиясини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”.
4. Dees, J.G. (2001). *The Meaning of Social Entrepreneurship*. Center for the Advancement of Social Entrepreneurship.
5. Bornstein, D., & Davis, S. (2010). *Social Entrepreneurship: What Everyone Needs to Know*. Oxford University Press.
6. Yunus, M. (2007). *Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism*. Public Affairs.
7. OECD (2022). *Tax Policy Reforms: OECD and Selected Partner Economies*. Paris: OECD Publishing.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*IX son, September*

8. UNDP Uzbekistan (2021). *Social Entrepreneurship in Uzbekistan: Challenges and Opportunities*.
9. Султанов, Ш. (2022). Ижтимоий тадбиркорлик – ижтимоий масалаларни ҳал этишда янги ёндашув. // Иқтисодиёт ва таълим. №4.
10. Хамидов, А. (2023). Ижтимоий тадбиркорлик ва унинг солиқ тизимидағи ўрни. // Молия ва солиқ журнали. №2.